

**Umumta'lif maktablari adabiyot darslarida ijodkor tarjimayi
holini o'rganishning ahamiyati**

Tojiyeva X.B.

O'z-Fin pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD

Ijodkor tarjimayi holi, uning shaxsiyati bevosita xalqimiz tarixi, madaniyati va ma'naviyati bilan uzviy bog'liqdir. U o'zi yashagan davri misolida ko'rgan, bilgan voqealar ta'rifini qalamga oladi. Shuningdek, ijodkorning tarjimai holi o'zi yashagan davrda tutgan o'rni va mavqeini ham belgilab beradi.

Ijodkor tarjimayi holi haqida atroficha ma'lumot berish XX asrning birinchi choragidan boshlab maktab, oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga kiritilishi urf bo'la boshladi.

Aslida esa, ijodkor tomonidan yaratilgan asarlarni o'rganish asrlar davomida kitobxonlarning diqqat markazida bo'lgan. Ijodkor yaratgan asar yoki she'riyat o'z o'quvchisini lol qoldirgan, haqiqiy muxlisiga aylantirgan hollarda muallif shaxsiyatiga oid ma'lumotlar qiziqtirganligi ehtimoldan holi emas.

Ijodkor tarjimayi holini o'rganish ta'lif tizimi tarixida, maktab va madrasalarda alohida mavzu sifatida kiritilganligi haqidagi ma'lumotlar uchramaydi. Ammo ayrim o'rinlarda ijodkor shaxsiyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, badiiy adabiyot bilan shug'ullanuvchi, shoortabiat mudarrislari tomonidan tilga olib o'tilgan holatlar uchraydi. Yoki ayrim iste'dodli shoirlar merosi haqida so'z yuritilganda, ularning ijodiga mansub ilmiy-nazariy, badiiy mulohazalar bildirilgan hollarda ijodkor shaxsiyati, fe'l-atvori, o'ziga xos betakror iste'dodi haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan. Yoki iste'dodli shoir merosidan olingan namunalarda shoir shaxsiyati bilan bog'liq, ijodkor o'z tilidan aytgan hasbu holini sharplash jarayonida ham muallif haqida, uning his-tuyg'ulari, kechinmalari haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Ijodkor haqida ma'lumot berishda madrasa mudarrisi yoki adabiyotshunos olimlar darsliklarga qo'shimcha tarzda tuzilgan tazkiralardan foydalanganlar.

Tazkiranevislikka IX asrda asos solingan bo'lib, dastlab turli she'rlarni maxsus daftarga ko'chirib kichik-kichik to'plam holiga keltirilgan. Bu to'plamlarda she'rlar muallifi xususida so'z keltirilmagan. Biroq vaqt o'tishi bilan to'plamlarga yozuvchilar haqidagi ma'lumotlar kiritila boshlagan. Qisqa bo'lsada, bu ma'lumotlar ijodkorning hayoti va faoliyati haqidagi ishonchli manba hisoblangan.

Eng qadimiylar tazkira XIII asrda Muhammad Avfiy tomonidan fors-tojik tilida tuzilgan bo'lib "Lubob ul-albob" ("O'zaklarning o'zagi") nomi bilan yuritilgan. Ammo unda yozuvchilarining tarjimai holiga oid ma'lumotlar uchramaydi.

XV asrga kelib, tazkiranevislik alohida bosqichga ko'tarilgan. Bu tazkiralardan iste'dodli shoir va adabiyotshunos Abdurahmon Jomiy ("Bahoriston"), Davlatshoh Samarqandiy ("Tazkirat ush-shuaro"), Alisher Navoiy ("Majolis un-nafois") qalamiga mansubdir.

Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" asarining 7 bobini she'riyatga, shoirlarga baho berishga bag'ishlagan bo'lsa, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida 459 nafar shoir haqida va ularning she'rlaridan namunalar keltiradi [25; 80-b].

Davlatshoh Samarqandiy tazkirasini Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Sulton Sohibqiron (Husayn Bayqaro) otig'a "Tazkirat-ush- shuaro" otlig' kitob bitibdur va bu toifani (shoirlarni) yaxshi jam' qilgan" ligini aytib o'tadi [25; 80-b].

XVI asrga kelib ijodkorlarning tarjimayi holi haqidagi ma'lumotlar bir munkacha takomillashib tazkiralardan tashqari tarixiy manbalarda ham uchraydi.

Yuqorida sanab o'tilgan tazkira, tarixiy manbalar, bayozlar haqida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ijodkorlar tarjimai holi haqidagi ma'lumotlarga oydinlik kiritish, ayrim hollarda chuqur tahlil qilish natijasida ijodkorning u yoki bu jihatlarini yoritib berish, iste'dodlariga xolisona baho berishga qaratilgan.

Yillar davomida darsliklar qayta ishlanib, to'ldirilib borilmoqda. Darsliklar bir necha mualliflar tomonidan yozilib, tender asosida eng yuqori talablarga javob beradiganlari tanlab olinib, o'quvchi va o'qituvchilarga tavsiya qilinmoqda. Darsliklarga qo'shimcha tarzda maxsus adabiyot fani chuqur o'rganiladigan akademik lisey, ijod maktablari uchun maxsus uslubiy qo'llanma turli tavsiyalar aks

etgan dars ishlanmalari chop ettirilmoqda. Adabiyot uchun ajratilgan xonalar turli zamonaviy texnik vositalar, turli ko'rgazmali qurollar bilan jihozlanmoqda.

Xullas, yozuvchi tarjimai holi haqida o'quvchilarga to'liq ma'lumot berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda, desak bo'ladi.